

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR-**

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

4-2023

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

O.T.Tursunov, F.R.Holboev Qashqadaryo viloyatining aholi zich joylashgan hududlarida tarqalgan <i>Rodentia</i> turkumi vakillarining ekologik holati.....	117
B.M.Sheraliyev, D.E.Urmonova, O.S.Azamov <i>Cottus spinulosus</i> skessler, 1872 (Teleostei: Cottidae) populyatsiyalari orasidagi genetik farqlanish	120
F.N.Xabibullayev, M.M.Yunusov Farg'ona vodiysida turli xil genotipdagi asalarilardan to'plangan asalning kimyoviy tarkibi	125
U.I.Obidjanov Biologiya o'qitish metodikasi kursi «Hayvonlar» bo'limi" infuzoriya-tufelka" mavzusi bo'yicha laboratoriya ishlarini takomillashtirish	129

GEOGRAFIYA

B.B.Eshquvvatov O'rta Zarafshon konussimon yoyilma landshaft komplekslari.....	133
Y.Karimov, Q.Yarashev Sirdaryo viloyatida tuproq sho'rliigi sizot suvlari sathi va minerallashuvio'zgarishini o'rganish usullari	139
R.T.Pirnazarov To'g'onli ko'llar va ularning genezisi haqida.....	144

ILMIY AXBOROT

M.M.Xolmatova Talabalarda gigiyenik madaniyatini rivojlantirishning nazariy-metodologik asoslari.....	150
R.R.Mamatov Gerta Myuller asarlarining badiiy xususiyatlari	156
R.U.Abdullazizova Boshlang'ich sinf o'quvchilarida olam rangli-lisoniy manzarasini shakllantirishning samaradorligi	156
R.U.Abdullazizova Boshlang'ich sinf o'quvchilarida olam rangli-lisoniy manzarasini shakllantirishning samaradorligi	159
A.A.Mirzayev Ibn Arabiyning tasavvufiy-irfoniy qarashlarida "Vahdat ul-vujud" konsepsiyasi tahlili	163
L.K.Karshibayeva, H.E.Egamqulov Sirdaryo viloyatining demografik vaziyati va uning geografik jihatlari.....	166
A.A.Yo'ldoshev O'zbekistonda ta'lim-tarbiya sohasidagi islohotlar strategiyasi.....	171
S.Kunduzaliyeva Dars jarayonlarida mediyata'limdan foydalanishning ahamiyati	174
N.R.Eshchanova Nafs tarbiyasida tasavvuf ilmining ahamiyati	178
M.B.Radjabova O'zbekistonda turar-joy masalasining tarixiy-huquqiy asoslari va davlat tomonidan tartibga solinish asoslari	182
S.Isroiljonov, V.A.Karimov Talabalarni jismoniy salomatlik ahvolini darajasi	186
D.I.Umirzakova Bo'lajak xorijiy til o'qituvchilarining tolerantlik tafakkurini "Yumshoq ko'nikmalar" asosida rivojlantirish mazmuni	190
K.N.Murodov Sport kurashida sportchilarining kuch chidamliligini rivojlantirish va musobaqa faoliyati samaradorligini oshirish texnologiyasi	196
Q.Sh.Omonov, N.A.Abdullayeva Oziq-ovqat mahsulotlarini kishi sog'ligiga ta'siri aks etgan maqollarning lingvomadaniy tahlili	203
Sh.N.Nurova Ibn Sino ta'limotida inson masalasi va insoniy xislatlar to'g'risida	206
Z.N.Usmonov Sog'lom bo'lish uchun och qolish	209

NAFS TARBIYASIDA TASAVVUF ILMINING AHAMIYATI
ЗНАЧЕНИЕ НАУКИ СУФИЗМА ВОСПИТАНИИ ДУШИ
THE SIGNIFICANCE OF THE SCIENCE OF SUFISM IN THE EDUCATION OF THE SOUL

Eshchanova Nargiza Ro'zimboy qizi¹

¹Eshchanova Nargiza Ro'zimboy qizi

– Chirchiq davlat pedagogika universiteti gumanitar fanlar fakulteti fakultetlararo Ijtimoiy fanlar kafedrası dotsenti, f.d. (PhD)

Annotatsiya

Nafs tarbiyasi eng dolzarb mavzulardan biri hisoblanadi. Bu mavzuda ko'plab olimlar, tariqat mashoyixlari so'z yuritganlar, qator kitoblar va risolalar bitganlar. Ushbu maqolada nafs tarbiyasida tasavvuf ilmining ahamiyati yoritib berilgan.

Аннотация

Самообразование – одна из важнейших тем. На эту тему высказывались многие учёные, историки, было издано множество книг и брошюр. В данной статье подчеркивается значение суфизма в самообразовании.

Abstarct

Self-education is one of the most important topics. Many scholars, historians, and many books and brochures have been published on this subject. This article emphasizes the importance of Sufism in self-education.

Kalit so'zlar: nafs, tarbiya, tasavvuf, alloma, meros, yoshlar, tarbiya, ma'naviy meros, tasavvuf ta'limoti, tasavvufning axloqiy ta'limoti.

Ключевые слова: нафс, образование, суфизм, аллама, наследие, молодежь, образование, духовное наследие, учение суфизма, нравственное учение суфизма.

Key words: lust, education, Sufism, Allama, heritage, youth, education, spiritual heritage, Sufism teachings, moral teachings of Sufism.

KIRISH

Bugun globallashuv jarayonlari bevosita fan, madaniyat, ma'naviyat, ma'rifat va ta'lim integratsiyasini yanada chuqurlashtirishni taqozo qilmoqda. Ayniqsa, ta'lim-tarbiyaviy, ma'naviy va ma'rifiy yo'nalishlar bugungi kunda muhim ijtimoiy vazifa sifatida XXI asr jahon hamjamiyatida takomillashib borayotgan taraqqiyot omillarining maqsadli tizimiga, rivojlanish tendentsiyalariga turtki beradigan, yoshlarimizning dunyo taraqqiyotida chuqur ijtimoiylashuvini va ma'naviy-axloqiy jarayonlarni zamonaviy bilimlar bilan boyitadigan innovatsion modelini yaratish kerakligini ko'rsatmoqda.

Shaxsni shakllantirishda allomalarimizning ilmiy, ma'rifiy, axloqiy, diniy, ma'naviy g'oyalaridan unumli foydalanish zaruriyatini keltirib chiqarmoqda. Jumladan, ularning halollik, poklik, vatanparvarlik, samimiylilik, mehnatsevarlik, diyonat, iymon-e'tiqod, ibodat, shaxs ma'naviy-axloqiy kamolotiga ijobiy ta'sir etib, manmanlik, jaholat, tuhmat, ochko'zlik, poraxo'rlik kabi salbiy illatlardan qutilishda hamda insoniyatni ezgu maqsadlar yo'lida mehnat qilish, bilimni qadrlash, qalb pokligini saqlashida dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Shu asnodda shaxsni shakllantirishda zamonaviy g'oyalar, ilg'or pedagogik tafakkur va pedagogik innovatsiyalar salmoqli ko'rsatgichlardan biri hisoblanadi. Bu esa allomalarimizning ilmiy, ma'rifiy, axloqiy, diniy, ma'naviy g'oyalaridan unumli foydalanish zarur.

NATIJA VA MUHOKAMA

Ma'naviy merosimizning tarkibiy qismlaridan birini tasavvuf ta'limoti tashkil qiladi. Tasavvuf musulmon olami xalqlarining diniy, ijtimoiy, falsafiy, madaniy-ma'naviy hayotida ommalashgan, murakkab, o'zaro ziddiyatlarga to'la g'oyaviy oqimlardan biridir. Tarkidunyochilik, bu dunyo ne'matlaridan tiyilish, Alloh visoliga yetish uchun qalb va ruhni poklash, halol, o'z mehnati hisobiga yashash, faqirlik tasavvuf ta'limotining xususiyatlaridan hisoblanadi. Bu xususiyatlar, o'z navbatida, islom tamadduni uchun ma'naviy-ruhiy asos bo'lib xizmat qiladi.

Jahonda islom ta'lim-tarbiya tizimida tasavvufiy g'oyalarning ma'naviy-axloqiy tarbiya imkoniyatlaridan foydalanishning nazariy asoslarini takomillashtirish va empirik tahlil etishga doir qator ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. Xususan, bu yo'nalishda AQSh, Buyuk Britaniya, Gollandiya, Turkiya, Eron, Pokiston, Malayziya, Rossiya, Ozarbayjon, Qozog'iston va boshqa bir qator mamlakatlarda tasavvuf ta'limotning diniy, falsafiy, ma'naviy-ruhiy, ma'rifiy-pedagogik, tarixiy asoslarining nazariy-metodologik jihatlari va ijtimoiy-siyosiy mohiyatini o'rganishga katta e'tibor berilmoqda.

O'zbekistonning 2022-2032-yillarga mo'ljallangan ma'naviy taraqqiyot strategiyasini ishlab chiqishni va uni davlat siyosatining tarkibiy qismiga aylantirishni talab qilmoqda"[1]. Shu boisdan ham ma'naviy-ma'rifiy islohotlar, rivojlanish va taraqqiy o'zgarishlar, yangi yo'nalishlar transformatsiyasini, ularga xos tamoyillar va Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasida ma'naviy-axloqiy qonuniyatlarning rolini tadqiq etish, ularni ilmiy asoslash muhim ahamiyat kasb etadi. Bu borada Sulaymon Boqirg'oniy, Najmiddin Kubro, Pahlavon Mahmud va boshqa bir qator Uyg'onish davri Xorazm mutafakkirlarining qarashlarida ham ustuvor ahamiyat kasb etadi.

Ma'lumki, tasavvuf ilmi islom shariatidagi eng ulug', eng fazilatli ilmlardan biri sanaladi. Tasavvufning axloqiy ta'limoti o'z davrida ikkita vazifani bajargan. Birinchisi, axloqiy o'zini o'zi takomillashtirishni axloqiy poklanish orqali insonning komillikka yetkazish. Ikkinchidan, bu ichki axloqiy hayotning namoyon bo'lishi, atrofdagi odamlar bilan munosabatlarda yorqin aks ettirilishi. Darhaqiqat, so'fiylik altruizmi, ya'ni boshqa odamlarga, hatto o'z manfaatlariga zarar yetkazilsa ham fidokorona xizmat qilish, muhim ijtimoiy-pedagogik va axloqiy ahamiyatga ega.

So'fiylikning o'ziga xos gedonizmi o'zining aniq ifodasini, birinchi navbatda ma'naviy-axloqiy fazilatlar natijasida olingan zavq, quvonch va lazzatlanishda topadi. So'fiylik gedonizmi an'anaviy gedonizmdan farq qiladi: bu yerda zavqni ataylab hisoblash mumkin emas. So'fiylik baxt va zavqni boshqalar manfaati va o'ziga zarar yetkazib bo'lsada fidoyilikni ixtiyoriy ravishda amalga oshirishda ko'rgan.

So'fiylik hukmdorlarining amalayotlarida, riyozat - ruh va nafsning istaklarini tark etish yoki minimallashtirish orqali ibodat qilishdir. Shuningdek, riyozat ozroq ovqatlanish, kam uxlash, kam gaplashish va ma'lum vaqt davomida ko'pchilik davrasidan uzoqlashishni anglatadi. Biz kurashning yordamchi elementlari deb atashimiz mumkin bo'lgan ushbu tamoyillarning barchasi Qur'on va Sunnatdan dalillarga ega. Kam ovqatlanish haqida Qur'on: Payg'ambarimiz "kofirlarning da'varga o'xshab ko'p ovqat yeyish xususiyati" deb hisoblar ekan (qarang, Muhammad, 47/12).

Qur'onda kamroq uxlash haqida: "Ular tunda ozgina uxlaydilar, tongda kechirim so'rashadi" (az-Zariyat, 51 / 1-7-18): "Ular karavotning yon tomonlarini ko'rmaydilar, o'zlariga ibodat qiladilar. Rabbimiz qo'rquv va umidda" (as-Sajda, 32/16) buyurilgan. Hadisda "eng fazilatli namoz kechasi o'qilgan tahajjud namozi" deb tavsiya qilingan va tungi uyquni kamaytirish va tahajjudni davom ettirish tavsiya qilingan.

Inson qalbidagi yomon odatlar, xususiyatlar va ularning ta'sirini bartaraf qilish uchun kurashish va itoat etish axloqiy quvonch va poklanishning elementlari hisoblanadi. Aslida, bu Qur'onda: "Nafs yomonlikka buyuradi" Oyat (Yunus, 12/53) ko'rsatiladi. Qur'onda qalbning yomon xususiyatlarini tozalaydigan kishi najot topishi haqida xabar berilgan .

Tasavvufda nafsning turlari quyidagicha farqlanadi:

Nafsi ammora - insonni dunyoviy lazzat va shahvatga undovchi nafs, undan qutulish yo'li shariatga amal qilmoqdir.

Nafsi lavvoma - insonni o'z gunohi uchun malomatga tortib, uni poklikka undovchi nafs, bu tariqat bosqichida kechadi.

Nafsi mulhama - insonni ilohiy nur bilan ruhlantirib, Haqni anglashga yo'l ochuvchi nafs, bu ma'rifatda oriflikka yetkazuvchi nafsidir.

Nafsi mutmayina - yomon xislatlardan tozalab, ilohga yaqinlik va hotirjamlik bahs etuvchi nafs, unga haqiqat bosqichida amal qilinadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Ma'lumki, dinimizda insonni saodatga yetishtirishning ko'plab ko'rsatmalari mavjud. Shunday amallardan biri – bu o'z nafsini poklashidir. Inson qalbining xastaligi va uning sabablaridan o'ta ziyraklik bilan ogoh bo'lishga muhtoj. Nafsni har xil yomon yo'llarga kirib ketishdan asrab, ertangi kunga nima hozirlab qo'yayotganiga e'tibor qilgan inson chin baxt egasi hisoblanadi. Nafsini tarbiya qilmas ekan, oqibati ayanchli bo'ladi.

Tarixga nazar soladigan bo'lsak, o'tgan olima-avliyolarimizning barchasi doimo nafsini tergap turgan. Hammasi yaxshiliklarning asosi – nafs tarbiyasi, yomonliklarniki – unga tobe bo'lish ekanini ta'kidlagan.

Xo'sh, avvalambor nafs nima ma'noni anglatadi?

Nafs insonning o'zligini, joni, qalbi ma'nolarini anglatadi. Bu haqda Imom G'azzoliy shunday yozadi: “ Bilg'ilkim, seni kim xalq qilibdur? Ikki nimarsadin biri zohir badandurki, ani tan atabdurlar, muni zohir ko'z birla ko'rgali bo'lur. Yana biri ma'nii botindurki, ani nafs derlar, jon atarlar va dil ham derlar”.

Nafs tarbiyasi borasida Alloh taolo Qur'oni Karimda bunday marhamat qiladi: “Darhaqiqat, uni (ya'ni o'z nafsini-jonini iymon va taqvo bilan) poklagan kishi najot topdi” (“Shams” surasi, 9-oyat). Demak, taqvo bilan hayot kechirgan kishi saodatga erishar ekan.

Nafsi taqvo ila tarbiya qilish haqida hadisi sharifda bunday deyiladi. Abdulloh ibn Abbos roziyallohu anhudan rivoyat qilinadi: “Rasululloh sollallohu alayhi vasallam: “Allohim, nafsimga taqvosini ber, Sen uning egasi va mavlosisan, uni poklaydiganlarning eng yaxshisidan”, der edilar” (Imom Tabaroniy rivoyati).

Ulamolar inson nafsidadagi ayblarni bilishning to'rtta yo'li borligini ta'kidlaydi. Birinchisi, nafs ayblaridan xabardor, undan yetadigan yashirin ofatlardan ogoh shayxning huzurida bo'lish. Bunda murid shayxni nafsiga hakam qiladi, nafs bilan kurashda uning ko'rsatmasiga to'la ergashadi.

Ikkinchisi, haqiqiy sodiq, diyonatli do'st tanlash. Go'yo bu do'st uning nafs ustidan kuzatuvchi vazifasini bajaradi. Shunda u do'stining tanbehu maslahatlariga qarab, o'zining fe'l-xo'yidan, xulqidagi zohiru botindan ogoh bo'ladi. Afsuski, biz yomon xulqimizdan ogoh etgan kishidan xursand bo'lmaymiz, tezda bu yomon xulqdan qutulishga harakat qilmaymiz. Aksincha, nasihat qiluvchiga: “O'zing ham falon-falon ishlarni qiluvding-kul!” deb tana yog'diramiz.

Uchinchisi, nafsning ayblaridan dushmanining tili orqali voqif bo'lmoq. Negaki, yomonlik yomonlikni namoyon qiladi, ya'ni dushmanning og'zidan chiqayotgan yomon so'zlar sendagi yomon xulq, yomon fe'lni so'zlayotgan bo'lsa, ne ajab! Balki ayblaringni yashirib, maqtovu olqishlarga ko'mgan ayyor do'stdan har bir so'zi nafratga to'la dushmaning sen uchun manfaatliroqdir.

To'rtinchisi, odamlarga aralashmoq, xalq ichida bo'lmoq. Kishi odamlar orasida bo'lib, ulardan biron yomon fe'l sodir bo'lganini ko'rsa, o'z nafsidan ham shu fe'lni izlasin, o'zida ham shu xulq bor deb, e'tibor etsin [3].

Nafsi dushmanlarning ichida ko'rinmas dushmanga o'xshatish mumkin. Bu xususda Rasululloh sallallohu alayhi vasallamdan bunday hadis keltiriladi: “Dushmanlarning ichida eng ashaddiy ichki dushman – o'z nafsingdir”. Inson tafakkur qiladigan bo'lsa, sirtidan kelayotgan dushmanni ko'rishi va unga qarshi tayyorgarlik ko'rishi mumkin. Lekin ichidagi dushmanini yengishi ancha mushkul. Chunki u insonning hamma sir-asroridan xabardor bo'ladi. Insonni yomon ishlarga undaydi, gunohga targ'ib etadi. Shu sababli har kim o'z nafsini taftish qilib, uni kuzatishdan hargiz beporvo bo'lmasligi kerak.

Albatta inson hayot ekan, nafs bilan bo'lgan savol-javoblar va ba'zan g'alayonlar sira ham to'xtamaydi. Nafs tinimsiz tarbiyaga muxtoj, biroz bo'sh qo'ysa, darhol ishratga moyil qiladi. Nafs tufayli odam bolasi kayfu safoga, yomon xayollarga g'arq bo'ladi. Zero, insonning o'z vujudini idora qiluvchi bir boshqaruvga ehtiyoji bordir. Nafs insonning shu ehtiyojini qondiradi.

Nafs insonga dushman ekani to'g'risida Sufyon Savriy bunday dedi: “O'zimga nafsimga ko'ra ashaddiyroq dushmanni ko'rmadim”. Abu Abbos Musiliy nafsiga qarata derdi: “Ey nafs, ne'matlarga burkangan boyvachchalar bilan bo'lib, dunyodan nima topding? Oxirat g'amida obidlar bilan ibodatlar qilding, yana nega norozisan? Men sen bilan go'yo jannat va do'zax orasida tutqundayman. Ey nafs, qachon fursatni g'animat bilasan?”. Demak, nafsini jilovlay olmaganlar bu dunyoga aldanib qolar, qimmatli vaqtini behuda narsalarga sarf etgan bo'lar ekan.

Inson nafsini hamisha tarbiyaga muhtoj. Inson o'z nafsini tanish va uni tarbiya toptirishi bilan kamolga yetadi. Komil insonlarning barchalari o'z nafsini tanib, uni tarbiyalab kamolga yetkargan kishilardir. Zero, o'z nafsini tanimagan odamdan komil inson chiqishi qiyin. Nafsi anglash haqida Luqmoni Hakim o'z o'g'illariga shunday degan ekanlar: “ Ey, o'g'lim! Seni ilk ogohlantirganim nafsingdir. Chunki har nafsning bir havosi, nafsoniy istagi bor. Agar nafsiga nafsoniy istaklarini bersang, yanada yo'ldan ozadi va boshqa narsalar istay boshlaydi. Chaqmoq toshda olov yashirin

bo'lgani kabi nafsoniy orzular ham qalbdagi yashirindir; yoqsang porlar, o'z holiga qo'yilsa, yashirinadi".

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, bu ilmni o'rganishni ko'lamini yana kengaytirish jamiyatning barcha sohalari rivojida to'sqinlik qilayotgan salbiy omillarni oldini olishda kuchli qurol bo'lishi va yoshlarni milliy va ma'naviy qarashlarini boyitishga sabab bo'ladi. Shu bilan birga, inson qalbining xastaligi va uning sabablaridan o'ta ziyraklik bilan ogoh bo'lishga muhtoj. Nafsi har xil yomon yo'llarga kirib ketishdan asrab, ertangi kunga nima hozirlab qo'yayotganiga e'tibor qilgan inson chin baxt egasi hisoblanadi. Nafsining tarbiya qilmas ekan, oqibati ayanchli bo'ladi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekiston strategiyasi. – Toshkent: "O'zbekiston", 2021. – B.272-273
2. Al-Ala, 87/14; al-Shams, 91/9.
3. Islom tasavvufi manbalari. – Toshkent: "O'qituvchi" nashriyoti, 2005. 334-335 betlar.
4. Ahmad Yassaviy. Devoni hikmat (nashrga tayyor. A. Abdushukurov). — T.: 1992. — B. 8 - 9 .
5. Muhammad Nurulloh Saydo al-Jazariy. Tasavvuf sirlari. — T.: Movarougnahr, 2000. — B.4.
6. Najmiddin Komilov, Tasavvuf. – Toshkent: «Movarounnahr» - «O'zbekiston», 2009. 9-b.
7. Shayx Najmiddin Kubro, Jamoling menga bas. - Toshkent, «G'ofur G'ulom», 1994. 14-b
8. Haqqulov I. Tasavvuf saboqlari. -Buxoro, 2000.
9. Qur'oni Karim. O'zbekcha izohli tarjima. A. Mansur. -Toshkent. "Cho'lpon", 1992.
10. Shayx Najmiddin Kubro. Tasavvufiy hayot. – Toshkent: «Movarounnahr», 2004.